
Daraxt va gul ko'chatlarini ekish ishlari davom etmoqda

Farg'ona shahrida joriy mavsumdagi "Yashil makon" umummilliy loyihasi doirasida 27 ming tup mevali, 545 ming tup manzarali daraxt, buta va qalamchalar hamda 100 mingga yaqin gul ko'chatlari ekish belgilangan. Bu reja ortig'i bilan bajarildi.

Ayni kunlarda ham jarayonlar davom etmoqda. Obodonlashtirish boshqarmasi tomonidan 1500 ming tup siren va 1000 tup atirgul ko'chatlari olib kelinib, ekish jarayonlari olib borilmoqda. Shu kunga qadar boshqarma xodimlari tomonidan shahar ko'chalariga 60 ming tup past bo'yli atirgul ko'chatlari ekilgan.

Bugun Farg'ona shahar hokimi Vosiljon Nazarov obodonlashtirish boshqarmasida bo'lib, amalga oshirilayotgan ishlar bilan yaqindan tanishdi. Ekish jarayonlarini tezlashtirish, mahalla fuqarolar yig'inlari, korxonalar va tashkilotlarga olib kelingan ko'chatlarni taqsimlash bo'yicha ko'rsatmalar berdi.

Mavsum ohiriga qadar shahrimizda yana ko'plab mevali va manzarali daraxt hamda noyob gul ko'chatlari ekilishi rejalashtirilgan.

Farg'ona shahar hokimligi Axborot xizmati

2023-03-23 14:27:21